

O‘ZBEK VA QOZOQ YOR-YORLARIDA OBRAZLARNING QIYOSIY TADQIQI

Aliqulova Hulkar

ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

hulkaraliqulova79@gmail.com

Anatatsiya:

Marosim folklori har bir xalqning tarixiy hayot tarzi bilan bir qatorda uning ilk dunyoqarashi bilan uyg‘unlashgan milliy-zamonaviy madaniy merosi haqida axborot beradi. Maqolada yonma yon yashayotgan o‘zbek va qozoq xalqlari to‘y marosimi bilan bog‘liq qo‘sishlarning tahlili orqali poetik obrazlarning badiiy xossalari o‘rganilgan. Obrazlar tizimidagi umumiylilik va o‘ziga xoslik qatlami qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: marosim, munosabat, yanga, kelin, obraz, qiyosiy tahlil, motiv, ifoda, badiiy tasvir, poetik qatlam

Kirish

To‘y marosimlarida ijro etiladigan har qanday qo‘sishlar o‘zining jonli ijrosi va ijro paytidagi ijtimoiy hayotga, borliqqa munosabatining real ko‘rinishi bilan jozibalidir. Ayniqsa, yor-yor qo‘sishlari zaminida aks etadigan ruhiy ifodalar, ularning estetik ta’siri jonli ijrosiz o‘z mohiyatini anchagina kamaytiradi.

Inson hayotida tub burilish yasaydigan nikoh to‘ylarida yor-yor qo‘sishlarining o‘z o‘rni va o‘z qimmati mavjud. Nikoh to‘yining o‘ziga tortar, ruhan ta’sirli qismi bu – yor-yor qo‘sish‘ining ijro etilish jarayoni. Yor-yor qo‘sishlari ikki tomon – kelin va kuyovning o‘zaro munosabatlari, hayotdagि o‘rni, ruhiy kechinmalarini, insoning qadr-qimmatini gohida haqiqiy, gohida mubolag‘a asosida ifoda etadi. Bu jarayonda esa, o‘z-o‘zidan ijtimoiy hayotga estetik munosabat yuzaga keladi. Estetik munosabat to‘yda ishtirok etayotgan mezbonlar mehmonlar, qudalar, kelin yangalaru kuyov jo‘ralar, jamiki atrof muhitda ishtirok etayotgan katta-kichiklarning ruhiy ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday ta’sir kuchi qo‘sishlarning jonli ijrosi, ijrochining mahorati, ijro payti va o‘rni bilan uzviy bog‘liq. Garchi qo‘sishlar jonli ijroda emas, tasmada yoki teleekranda qo‘yilganda uning nafaqat estetik ta’sir kuchi, balki an’anaviyligi, og‘zakiligi, o‘ziga xos ijro usulidagi davomiyligiga ham putur yetadi.

Folklor – avvalo yaratuvchilar va ijro etuvchilar uchun, keyin esa tomoshabin va tinglovchilar uchun mavjud bo‘lgan san’atdir. Folkloini borliqqa estetik munosabatini o‘rganishning ikkita asosiy yo‘li mavjud. Birinchisi, san’at asarlarini ob’ektiv analizi bo‘lsa, ikkinchisi esa shu san’at asarini ijrosi vaqtida ijro etuvchilar va xalq auditoriyasining reaksiyasini kuzatishdir.¹

¹B.E.Гусев. Эстетика фольклора. Ленинград. 1967. - Б.270.

Yor-yorlarda estetik munosabatlarni tahlil qilishda biz ham shu jihatlarga e'tiborni qaratdik.

Yor-yor aytuvchilar tinglovchilar, tomoshabinlar (to'y ishtirokchilar) ongiga, his-tuyg'ulari va tasavvurlariga, ayni ijro jarayonida ta'sir etib, xalq ijodi asarlarining muhim muammolariga e'tibor qaratadilar.

Tokchadagi qaychini,
Chang bosibdi, yor-yor.
Ketadigan qizchani,
G'am bosibdi yor-yor.

Ushbu misralarni tinglagan atrofdagi insonlar, albatta, e'tiborini kelinga qaratadi. Ayniqsa, yor-yor qo'shig'idagi qaychi detalining zang bosganligi, keyingi misradagi kelinning g'am bosganligi bilan shunday uyg'unlikda tanlanganki, tinglovchi qalbi o'z-o'zidan bu holatga o'z munosabatini namoyon etadi. Uchinchi misrada keltirilgan qizcha so'ziga ham e'tiborni qaratsak. Nega aynan ushbu so'z keltirilmoqda? Uning o'rniga «kelin» deb berilsa ham bo'lardi. Demak, kelin hali yosh. Yor-yor misralarida ijtimoiy hayotning muammoli ko'rinishlari ham (qizlarni yosh turmushga uzatish) o'rnida, ajoyib detallar soyasida berib borilgan. Bunday misralar har qanday inson ruhiyatiga, hatto aytuvchining qalbiga ham ta'sir ko'rsata oladi.

Oy oldida bir yulduz,
Oy bolasi yor-yor.
Kelayotgan kelinchak,
Boy bolasi yor-yor.

Kuyovni boy dedilar
Boyi qani yor-yor,
Samovarda qaynab turgan
Choyi qani yor-yor.

Boylik, davlat – har doim ham muammoli mavzu hisoblangan. Hayotga bo'lgan munosabat manzaralarida ham bu chizgilar anchagina. Yor-yor qo'shiqlarida ikki yoshning, yoki ikki oilaning bir-biriga yaqinlashuvi (quda-anda munosabatlari) ularning mavqe-darajasiga ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayni to'y paytida ijro etiladigan bunday misralar hayotdagi qarama-qarshi dunyoqarashlarga estetik munosabatlarni uyg'otadi. Estetik munosabatlar esa insonni o'ylashga, fikrlashga, hayotiy voqealarni to'g'ri tahlil qilishga undaydi.

O'zbek va qozoq xalqining yor-yorlarida *yanga* obrazi kelin-kuyovning yordamchisi, yetaklovchisi, yo'l ko'rsatuvchisi sifatida gavlanadi. Har ikki yosh avval yangasiga o'z dardini aytadi. To'ydan oldin, to'ydan keyin yanga – ikki yoshning maslahatchisi hamda guvohi hisoblangan. "Kelin salom" va "Betochar" marosimlarida ham yanga asosiy vazifani bajaradi. O'zbek yor-yorlarida yanga obrazi bilan bog'liq ifodalar goh kelin, goh kuyov ta'rifida yonma-yon keladi. "Qat-qatgina, qatlama, qatlanadi, yor-yor. Qizni olib yangalar, otlanadi, yor-yor" ba'zida "kuyovni olib yangalar, otlanadi, yor-yor" shaklida ham uchraydi. Ko'rinish turibdiki, yangalar kelin-kuyovga keyingi jarayon uchun yo'lboshchilik qilmoqda. G.M.Sizdiqovaning ta'kidicha, "...қыз женгелері аптығып алдыңнан шықтық, соған "ентікпемізді" бер десе, үй тіккен әйелдер "шатыр байғазысын" сұрайды, күйеуге қалыңдықтың інісі мен сінлісін көрсеткені үшін тағы да женгелер "балдыз көрімдік" талап етеді"², qolaversa, to'yda kelin va kuyov tomonning aytishuvlarida yangalar yetakchilik qilgan. Ikki tomonning obro'-e'tiborini, mehr-muhabbatini oshiradigan ham yangalar hisoblangan.

² Сыздықова Г.М. Қазақ халқының дәстүрлі мәдениетіндегі үйленуге қатысты әдет-ғұрыптар / Семей қаласының Шәкәрім атындағы МУ хабаршысы. Педагогика сериясы. – № 1 (17), 2018.

Janadilova Aytolqinning axborotiga ko‘ra kelin va kuyovning yangalari to‘yning boshlanishidan tugaguniga qadar to‘ydan keyingi marosimlar uchun ham mas’ul bo‘ladi. Jar-jar qo‘shiqlarini ham kuyovning nomidan yangalar ijro etadi. Kelinni kuzatib borish, chimildig‘ida qorovul bo‘lish, ikki tomon uchun zarur bo‘lgan xabarlarni yetkazib turish kabi vazifalar yangalarning zimmasidadir³. Bu kabi mas’ullik o‘zbek yangalariga ham daxldordir.

Qat-qatgina qatlama,
Qatlanadi, yor-yor.
Qizni olib yangalari,
Otlanadi, yor-yor⁴.

Yoki:

Qat-qatgina qatlamalar,
Qatlanadi-yo, yor-yor.
Kuyov bola yangalari,
Otlanadi-yo, yor-yor⁵.

To‘rtliklarda ham kelin yanga, ham kuyov yanga haqida axborotlar juda ko‘p uchraydi. O‘zbek yor-yorlarida ba’zida kelin-kuyov yangalarining xarakter-xususiyatlari, tashqi qiyoqasi bilan bog‘liq hazilomuz misralarni ham uchratamiz.

Ro‘molimni uchiga,
Tugdim uchuq, yor-yor.
Kelin oyim yangalari,
Bari puchuq, yor-yor.
Ro‘molimni uchiga,
Tugdim tariq, yor-yor.
Kuyov pochcham yangalari,
Rangi sariq, yor-yor⁶.

Bunday to‘rtliklarda yor-yorlarning aytishuv shakli ko‘zga tashlanadi.

Қатар-қатар қаттамалар,
Қатталып түр, жар-жар.
Қызды алышп женгелери,
Аттанып түр, жар-жар⁷.

Yoki:

Тұндігімнің торт бауы –
Бас бауымды, жар-жар-ay.
Алты женгем сүрайды,
Шашбауымды, жар-жар-ay⁸.
Азар жақсы болса да,
Абысыным⁹, жар-жар?!
Айналайын женгемдей
Болмақ қайда, жар-жар?!¹⁰

³ Folklor ekspeditsiya materiali. Aytuvchi: Janadilova Aytolqin, Koles tumani, Kazaxstan qishlog‘ida yashaydi, 59 yosh.

⁴ Тұхлиев Б., Шералиев Э., Алиқулова Х. Ёр-ёрлар. О‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent, 2009. – Б. 18.

⁵ Тұхлиев Б., Шералиев Э., Алиқулова Х. Ёр-ёрлар. О‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent, 2009. – Б. 10.

⁶ Тұхлиев Б., Шералиев Э., Алиқулова Х. Ёр-ёрлар. О‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent, 2009. – Б. 42.

⁷ Бабалар сезіз. Жұзтомдық. – Астана: Фолиант, 2012. Т. 90: Ғұрыптық фольклор. – Б. 432. – Б. 115.

⁸ Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – 87 б – Б. 55.

⁹ Kuyovning yangasi.

¹⁰ Екі-мыңжылдық дала жыры. Ә.Нысанбаев. – Алматы, 2000. – Б. 67. – Б. 67.

Ba'zida yangalardan norozilik ifodasida ham qizni uzatishda yanganing mavqeyi qaydarajada ekanligi seziladi.

Есіктән алды құмдақты, жар-жар-ау!
Құмдақтан қоян зымдапты, жар-жар-ау!
Амасы басқа жсау жсөңгөң, жар-жар-ау!
Отауға салып тыңдапты, жар-жар-ау!¹¹

Chimkent shahri, Rimskiy Korsakov ko'chasi 52-uyda yashovchi Yormuhammad Madaliyevning uyida bo'lgan nikoh to'yida kelinni olib kelgan yangalar yor-yor ijro etishdi. Yor-yor qo'shig'i kelin salomga ulanib ketdi. Kelinni mashinadan olib tushayotganda poyandoz tushalib, isiriq tutatilib, kelinning boshi uzra oq mato yopildi. Oq matoning o'rtasida oq pat yopishtirilgan. Matoning to'rt tomonidan to'rtta yanga ushlab yor-yor kuylashdi:

Shildir-shildir qamishga,
Sirg'am tushdi, yor-yor-ov,
Sinalmagan joylarga,
Siynim tushdi, yor-yor-ov¹².

Qozog'istonda yashovchi o'zbeklarning (O'zbekistonda yashovchi qozoqlarning) to'y marosimida ham oq patning uchrashi kuzatildi. Ko'rinish turibdiki, yillar davomida yonma-yon yashagan ikki xalqning urf-odatlari, dunyoqarashlari, marosim folklorining bir-biriga ta'siri ko'zga tashlanadi.

Shu ko'chada yashovchi 50 yoshli Ualixonova Manat opa ham jar-jar qo'shig'ini kuylab berdi:

Сылдыр-сылдыр қамысқа,
Сыргам түсті, жар-жар-ау,
Сынамаған жерлерге,
Сіңлім түсті, жар-жар-ау.
Сіңлім үшін қабыргам қайысады, жар-жар-ау,
Он қолымда он жүзік майысады, жар-жар-ау.

Har ikki ijrodagi ohang, ijro yo'nalishi O'zbekistondagi yor-yor ijro usulidan farq qiladi.

Umuman olganda, o'zbek va qozoq yor-yorlarining umumiyligi hamda o'ziga xos xususiyatlari obrazlar tizimida ham muhim ahamiyat kasb etidi. Nikoh to'yining bosh qahramoni hisoblangan kelin obrazi asosiy planda ta'rif-tavsif etilgan. O'zbek yor-yorlarida kelinning tashqi qiyofasi, go'zalligi, beba ho ekanligi asosiy tasvir ob'yektiga aylansa, qozoq jar-jarlarida o'zga xonadon, yangi hayot oldidagi kelin iztirobi, ayrılıq va sog'inch motivi ustuvorlik qiladi. Yor-yor/jar-jarlarning ijro o'rni nikoh to'yining asosiy uzvida kuylansa-da, badiiyati, obrazlar tizimining o'ziga xosligi, kompozitsion qurilishning mukammal ko'rinishda mavjudligi ilmiy-nazariy xulosalar, tasniflar chiqarishga asos bo'la oladi..

Foydalangan adabiyotlar

- Бабалар сөзі. Жұтомуңдық. – Астана: Фолиант, 2012. Т. 90: Ғұрыптық фольклор. – Б. 432. – Б. 115.
- Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – 87 б.
- Сыздықова Г.М. Қазақ халқының дәстүрлі мәдениетіндегі үйленуге қатысты әдет-ғұрыптар / Семей қаласының Шекерім атындағы МУ хабаршысы. Педагогика сериясы. – № 1 (17), 2018.

¹¹ Садырбаев С. Қазақ халық әдебиеті. – Алматы: Рауан, 1990. – 87 б – Б. 55.

¹² Chimkent shahri, Rimskiy Korsakov ko'chasi, 52-uyda yashovchi Madaliyev Yormuhammadning o'g'lining nikoh to'yida ishtirok etib, urf-odatlар, irim-sirimlar, to'y qo'shiqlari haqida ma'lumotlar to'pladi. 2023-yil 11-iyun.

4. Тўхлиев Б., Шералиев Э., Аликулова X. Ёр-ёрлар. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent, 2009. – Б. 109.
5. Екі-мынжылдық дала жыры. Э.Нысанбаев. – Алматы, 2000. – Б. 67. – Б. 67.